

XITOIY VA O'ZBEKISTONDA TIL O'RGANISH METODIKASI

*Oydinoy Mamadaliyeva**Andijon davlat chet tillari instituti*oydinoybaxtiyorovna16@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Xitoy va O'zbekistonda chet tillarini o'qitish bosqichlari, turli o'quv yurtlarida chet tillarini o'qitish, bu ikki mamlakat o'rtasida chet tillarini o'rganishga qaratilgan e'tiborlar va olib borilayotgan ijtimoiy masalalarni o'rganadi, bu sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan zaruriy chora-tadbirlar haqida muhokama qiladi. Shuningdek, ikki mamlakatning o'qitish metodikalari va ular o'rtasidagi farqlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Chet tilini o'rganish bosqichlari ,o'quv predmeti, interfaol metodikalar, yondashuvlar

Annotation: This article examines the stages of foreign language teaching in China and Uzbekistan, the teaching of foreign languages in various educational institutions, and the attention given to foreign language learning in both countries, as well as the social issues related to this field. It also discusses the necessary measures to further improve this sector. Additionally, the article explores the teaching methodologies of both countries and the differences between them.

Keywords: Stages of learning a foreign language, academic subject, interactive methodologies, approaches

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы преподавания иностранных языков в Китае и Узбекистане, обучение иностранным языкам в различных учебных заведениях, а также внимание, уделяемое изучению иностранных языков в обеих странах, и связанные с этим социальные вопросы.

Кроме того, обсуждаются необходимые меры по дальнейшему совершенствованию данной сферы. В статье также анализируются методики преподавания в обеих странах и различия между ними.

Ключевые слова: Этапы изучения иностранного языка, учебный предмет, интерактивные методики, подходы

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko'p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. „Idrokli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasidir“¹. Ushbu tillar ta'lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi: ona tili, ikkinchi til va chet tili.

Xitoy madaniy inqilob (1966-1976) dan so'ng ta'lim tizimidagi o'zgarishlar sabab qayta oyoqqa turdi va hayratlanarli natijalarga erishdi. Inqilobdan beri oradan salkam yarim asr (47 yil) vaqt o'tdi, ammo mamlakatning dunyoga berayotgan sabog'i asrlarga tatigulik bo'lmoqda. Xitoyda ham chet tillarini o'qitish metodikasi turli bosqichlarga bo'linib, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. Xitoyda maktabgacha ta'lim tizimi 1985-yildagi ta'lim islohotida belgilangan tamoyillar asosida tashkil etilgan. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarini davlat korxonalari, ishlab chiqarish guruhleri, shahar hokimiyatlari, jamoalar va ijtimoiy guruhlar otaliqqa olishi kerak. Hukumat maktabgacha ta'limga homiylik qilish xususiy va turli davlat tashkilotlarining ijtimoiy xizmatlaridan biri ekanini e'lon qildi. Shuningdek, o'sha yilgi islohotda maktabgacha ta'limni pullik tashkil etish va pedagog kadrlar tayyorlash mexanizmini kuchaytirish ko'zda tutilgan. Xitoylik bolalar odatda

¹ 1 G'afur G'ulom. Ko'p tilni bilishning xosiyati // O'qituvchilar gazetasi, 1965-yil 16-sentabr („Toshkent oqshomi“ gazetasining 1989-yil 6-aprel sonida „Ko'p tilni bilish xosiyati“ nomi bilan qayta bosilgan).

3-6 yoshgacha bog'chaga boradilar. Tarbiyachilar albatta boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi maqomiga ega bo'lishi lozim. Asosiy e'tibor bolaning o'yin o'ynashi yoki dam olishiga emas, intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratiladi.² Xitoyda bolalarga chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini, erta yoshdan boshlab o'rgatish keng tarqalgan. Bu jarayonda bolalarning yoshiga mos ravishda o'yinlar, qo'shiqlar va interfaol mashg'ulotlar orqali til o'rgatish amalga oshiradi. Xitoy maktabgacha ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishda multimedia vositalari, jumladan, audio va video materiallar, interfaol dasturlar keng qo'llaniladi. Bu usul bolalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi. O'zbekistonda chet til o'quv predmetining majburiy kursi metodik jihatdan turlicha davrlashtirib kelingan. Davrlashtirish, odatda, boshlang'ich (V-VI sinflar), o'rta (VII-VIII sinflar) va yuqori (IX-XI sinflar) bosqichlar bilan chegaralangan³. Hozirgi paytda umumiy o'rta ta'lim maktablarida chet tili ikki –boshlang'ich (V-VI) va o'rta (VII-IX) bosqichlarga bo'lib o'rgatiladi. Uchinchi - yuqori bosqich esa akademik litsey va kasb-hunar kollejini qamrab oladi. Bosqichlarga⁴ ajratishda, bir tomondan, chet tilni o'qitish xususiyati hisobga olinsa, ikkinchi tarafdan, o'quvchilar yoshi nazarda tutiladi. O'quvchining yosh xususiyati ruhshunoslarning teran nazariy va eksperimental tadqiqotlarida atroflicha ishlab chiqilgan (L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev, J. Piaje va boshqalar asarlarida mazkur masala aks ettirilgan). Chet til o'qitish jarayonini tashkil qilishda ruhshunoslik va odamshunoslik (fiziologiya) ilmiy manbalariga suyanib ish ko'riladi. Har ikkala mamlakatda ham maktabgacha ta'limda chet tillarini o'qitish muhim deb hisoblanadi, ammo yondashuvlar va metodikalar milliy xususiyatlar va ta'lim tizimining rivojlanish darajasiga qarab farqlanadi. Xitoyda boshlang'ich maktablarda ingliz tili majburiy fan sifatida o'qitiladi. O'quvchilar yoshligidan boshlab ingliz tilini o'rganishga jalb qilinadi, bu esa ularning xalqaro muloqot qobiliyatlarini

² Zamon.uz Xitoy ta'lim tizimiga bir nazar: Tartib va mas'uliyat muvaffaqiyati. Sevara Alijonova

³ Программа по иностранным языкам (английский, немецкий, французский) для V-XI классов общеобразовательной школы с узбекским языком обучения (проект) / Составители Х. Сайназаров, С. С. Мирсагатова и др. - Ташкент: Укитувчи. 1988. - 4-bet.

⁴ Metodik adabiyotlarda davrlashtirishga oid ilmiy terminlarning ma'noviy mushtarakligi saqlangan holda nomlashda har xillik kuzatiladi: boshlang'ich-dastlabki, kichik-quyi, yuqori-katta, yakuniy-so'nggi: bosqich-davr va h.k.

rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ham ingliz tili boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘qitiladi. So‘nggi yillarda chet tillarini o‘qitish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa ta‘lim sifatini oshirishga qaratilganlikdan dalolatdir. Boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarning muallim hikoya va ko‘rsatmalarini tinglab tushuna olishlari, o‘rgangan til materiali asosida rasmga qarab gapirib berishlari, matn mazmunini aytib berishlari, o‘tgan mavzular bo‘yicha suhbat qura olishlari, matnni o‘qib tushunishlari talab qilinadi. Berilgan savolga javob qaytarish, savol berish, taklifga rozilik/qarshilik bildirish, juft nutqda sherigining gaplarini tushunish malakalarini egallaydi. Og‘zaki nutq va o‘qish mavzulari, asosan, maktab va uy haqida bo‘ladi. Leksik-grammatik material aktiv minimum maqomida o‘zlashtiriladi. Boshlang‘ich bosqich metodikasining eng murakkab masalasi nutq faoliyati turlarini baravar o‘rgatish yoki ularni ayrim-ayrim, ketma-ket o‘rgatish ma‘qul yoki noma‘qulligida. Muammoning chigalligi yana shundaki, og‘zaki nutqdan o‘qishga qarab borish kerakmi yoki aksincha yo‘l tutish zarurmi, degan savollarni hal qilish bilan bog‘liq. Metodika nazariyasi va maktab amaliyotida ikkita ilmiy termin tez-tez uchrab turadi: og‘zaki kirish kursi va og‘zaki ilgariylash. Boshlang‘ich bosqichning o‘ta dolzarb masalalari shu ikki tushunchaga taalluqli. Ma‘lum muddat og‘zaki nutqni o‘rgatib, keyinroq yozma nutqqa o‘tiladigan metodik yondashish og‘zaki kirish kursi nomini olgan. Bir chorak (hatto yarim yil) mobaynida og‘zaki mashqlarnigina bajarish tavsiya qilingan darsliklar mavjud. Qator davlatlarda og‘zaki kirish kursining turli ko‘rinishlari ishlab chiqilgan va birinchi o‘quv yilida joriy etilgan. O‘rta bosqichda aktiv leksik va grammatik materialni o‘rganish davom etadi. Og‘zaki nutq yetakchi amaliy maqsad va muhim ta‘limiy vositalardan biri maqomini saqlab turadi. O‘qishning malaka sifatida mavqeyi o‘zgaradi, u asosiy amaliy maqsad darajasiga chiqib boshlaydi. Yozma matndan qiziqarli va foydali axborot olishga e‘tibor oshadi. Xullas, og‘zaki nutq va o‘qish malakalariga sarflanmish kuch va vaqt baravarlashadi. VII sinf oxiriga kelib o‘qishning amaliy maqsad maqomini egallashiga zamin hozirlanadi.⁵ Xitoyning o‘rta ta‘lim tizimi shartli ravishda ikki bosqichdan iborat - quyidagi

⁵ Chet til o‘qitish metodikasi. "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2012 334-bet

(birinchi) va yuqori (ikkinchi). Pastki bosqich 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan uch yillik o'qish uchun mo'ljallangan va majburiy ta'limning yakuniy bosqichidir.⁶ Xitoy oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina universitetlarda bakalavriat bosqichida talabalar uchun ingliz tili majburiy fan sifatida o'qitiladi. Bu talabalar xalqaro miqyosda muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Universitetlarda chet tillari, jumladan, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa tillar bo'yicha ixtisoslashgan fakultetlar mavjud. Bu fakultetlarda talabalar tanlangan tilda chuqur bilim olishlari mumkin. Ba'zi universitetlarda chet ellik talabalar uchun ingliz tilida olib boriladigan dasturlar mavjud. Bu dasturlar orqali talabalar Xitoyda ta'lim olib, shu bilan birga ingliz tilidagi bilimlarini ham rivojlantirishlari mumkin. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zDJTU kabi oliy ta'lim muassasalarida chet tillari bo'yicha ixtisoslashgan fakultetlar mavjud. Zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodikalar joriy etilmoqda. Masalan, virtual laboratoriyalar, onlayn ta'lim platformalari va multimedia vositalari keng qo'llanilmoqda. Xalqaro standartlarga mos keladigan til sertifikatlarini (IELTS, TOEFL, CEFR) olishga tayyorlov kurslari tashkil etilib, ularning rivojiga katta e'tibor berilmoqda.

Xitoyda ingliz tili barcha bakalavriat talabalari uchun majburiy fan hisoblanadi. Ingliz tilidan davlat imtihonlari (CET – College English Test) o'tkaziladi va ularning natijalari diplom olish uchun muhim hisoblanadi. O'zbekistonda esa chet tili aksariyat universitetlarda majburiy fan sifatida o'qitiladi, lekin ayrim texnik va kasbiy yo'nalishlarda talabalar chet tilini chuqur o'rganmaydi. Chet tili bo'yicha davlat imtihonlari mavjud bo'lsa ham, u diplom olish uchun shart emas. Shuningdek, Xitoyda talabalar chet tilini amaliy mashg'ulotlar va xalqaro talabalar bilan muloqot orqali mustahkamlashadi. Ayrim universitetlarda chet ellik o'qituvchilar jalb qilingan bo'lib,

⁶ Zamon.uz Xitoy ta'lim tizimiga bir nazar: Tartib va mas'uliyat muvaffaqiyati. Sevara Alijonova

talabalar jonli suhbat va muhitda til o'rganish imkoniyatiga ega. Ta'lim ko'proq yodlash va sinfda nazariy bilim berishga asoslangan bo'lsa-da, texnologiyalardan keng foydalaniladi. Onlayn resurslar, interfaol darsliklar va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari joriy etilgan. Yurtimiz o'qitish tizimidagi ko'p joylarida an'anaviy yondashuvlar saqlanib qolgan. Lekin so'nggi yillarda interfaol usullar, onlayn kurslar va xalqaro sertifikatlariga tayyorgarlik ko'rsatadigan dasturlar joriy etilmoqda. Hozirda Erasmus+, DAAD, Tempus kabi xalqaro dasturlar mavjud, lekin ularning soni va hajmi Xitoynikidan ancha kam.

Xulosa qilib aytish kerakki, Xitoy va O'zbekiston til o'rganish metodikalarida o'ziga xos yondashuvlarga ega. Xitoyda til o'rganishda multimedia vositalari, imoishoralar va grammatikaga katta e'tibor qaratilsa, O'zbekistonda zamonaviy, interfaol metodlar va innovatsion usullar qo'llaniladi. Har ikkala mamlakat tajribasi bir-biridan o'rganishga arziydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'afur G'ulom. Ko'p tilni bilishning xosiyati // O'qituvchilar gazetasi, 1965-yil 16-sentabr („Toshkent oqshomi" gazetasining 1989-yil 6-aprel sonida „Ko'p tilni bilish xosiyati" nomi bilan qayta bosilgan).
2. Программа по иностранным языкам (английский, немецкий, французский) для V-XI классов общеобразовательной школы с узбекским языком обучения (проект) / Составители Х. Сайназаров, С. С. Мирсагатова и др. - Ташкент: Укитувчи. 1988. - 4-bet.
3. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi .Toshkent-2012 334-bet
4. Zamon.uz Xitoy ta'lim tizimiga bir nazar: Tartib va mas'uliyat muvaffaqiyati. Sevara Alijonova